



OG'IR IJTIMOIIY HOLATGA TUSHIB QOLGAN XOTIN-QIZLAR BILAN SAMARALI MULOQOT O'RNATISH HAMDA ULARDA HAYOTGA IJOBIY QARASHNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Abduramanov Xamid Xudaybergenovich

Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti

direktor o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya. *Mazkur maqolada og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularda hayotga ijobiy qarashni shakllantirish, ijtimoiy adaptatsiya jarayonlarida yordam berish usul va mexanizmlari tahlil qilingan. Xotin-qizlar faolining tashkilotchilik qobiliyati, fidoyilik, hayotiy tajriba, ruhiy qo'llab-quvvatlash usullari, "Ayollar daftari" va individual ijtimoiy reja asosidagi ishlar samaradorligiga alohida e'tibor qaratilgan. Mahalladagi profilaktik tadbirlar, monitoring tizimi va muloqot madaniyati muammolarni aniqlash va bartaraf etishda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar. *Og'ir ijtimoiy holat, xotin-qizlar faoli, samarali muloqot, ijtimoiy adaptatsiya, motivatsiya, ruhiy qo'llab-quvvatlash, Ayollar daftari, individual ijtimoiy reja, tashkilotchilik qobiliyati, mahalla yettiligi, muammoli oilalar, monitoring va tahlil, fidoyilik, sadoqat, muomala madaniyati.*

Аннотация. *В статье рассматриваются методы эффективного установления диалога с женщинами, оказавшимися в тяжёлой социальной ситуации, а также формирования у них позитивного взгляда на жизнь и интеграции в общество. Особое внимание уделяется организаторским способностям женских активистов, их самоотверженности, жизненному опыту и роли психологической поддержки. Подчёркивается значение индивидуального подхода, "Женской тетради" и системы мониторинга в решении социальных проблем. Отмечена важность профилактических мероприятий в махалле и культуры общения.*

Ключевые слова. *Тяжёлая социальная ситуация, женский актив, эффективная коммуникация, социальная адаптация, мотивация, психологическая поддержка, Женская тетрадь, индивидуальный социальный план, организаторские способности, команда махалли, проблемные семьи, мониторинг и анализ, самоотверженность, преданность, культура общения.*

Annotation. *This article analyzes the methods of establishing effective communication with women in difficult social conditions and developing a positive outlook on life. It emphasizes the importance of psychological support, individual social plans, and community-based approaches such as the "Women's Register." Key qualities*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

of women's activists—including organizational skills, dedication, life experience, and public respect—are explored. The article also highlights the necessity of proactive collaboration among institutions, social monitoring, and fostering trust through culturally sensitive communication.

Keywords. Difficult social situation, women's activist, effective communication, social adaptation, motivation, psychological support, women's register, individual social plan, organizational skills, mahalla team, problematic families, monitoring and evaluation, dedication, loyalty, communication culture.

Kirish

Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar fonida xotin-qizlarning muayyan qismi og'ir hayotiy vaziyatlarga duch kelmoqda. Bunday holatlar ko'pincha iqtisodiy yetishmovchilik, ishsizlik, yolg'izlik, ruhiy zo'riqish, huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi va jamiyatdagi tengsiz munosabatlar natijasida yuzaga keladi. Xotin-qizlarning og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishi — bu shunchaki shaxsiy muammo emas, balki butun jamiyat barqarorligi, aholi farovonligi va taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi.

Shu sababli, ularning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, tegishli yordam choralari ko'rish va to'g'ri yo'naltirish tizimini shakllantirish davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Xotin-qizlar muammolarini hal etishda faqat moddiy yordam bilan cheklanib qolmasdan, balki ular bilan samarali muloqot o'rnatish, ruhiy qo'llab-quvvatlash, hayotga ijobiy qarashni shakllantirish va kelajakka bo'lgan ishonchni tiklash kabi omillar ham muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145-sonli qarori bilan "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁶⁴gi qarorida muhim vazifalar belgilangan. Unga ko'ra, ehtiyojmand xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga mos individual ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, ko'rsatilayotgan yordam samaradorligini muntazam tahlil qilib borish talab etiladi.

"Ayollar daftari" yoki "Yoshlar daftari"ga kiritilmagan, lekin hayotiy muammolar bilan yuzma-yuz kelayotgan xotin-qizlarni aniqlash va ularni to'g'ri idoralarga yo'naltirish, zaruratga ko'ra rasmiy murojaatlar orqali davlat organlari va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali yechim topish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, og'ir ijtimoiy sharoitga tushib qolgan xotin-qizlar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning ichki holatini tushunish, hayotga nisbatan ijobiy

⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Хотин-қизлар муаммоларини ўрганиш ва ҳал этиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" 2022 йил 31 мартдаги 145-сон қарори / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.04.2022 й., 09/22/145/0253-сон, 10.09.2022 й.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qarashni shakllantirish va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishlariga ko'maklashish — zamonaviy ijtimoiy ishning markaziy vazifalaridan biri sanaladi.

Asosiy qism. Muammolarini bartaraf etish jarayonida xizmat oluvchining ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirishda faolligini oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur jarayonda xizmat oluvchini muhim hayotiy va ijtimoiy ko'nikmalarga o'rgatish, maslahatlar berib borish yaxshi natija beradi.

Har bir inson ishlashi va yashashi uchun motivatsiya zarur.

Motivatsiya bu – inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil hisoblanadi.

Motivatsiya – insonda ichki va tashqi tomondan paydo bo'ladigan, uni yashashga undaydigan xatti-harakatlar bilan namoyon bo'ladigan kuchli xohish hisoblanadi.

Ma'lumki, inson hayotining asosiy vaqti ma'lum ma'noda oilada kechadi. Insoning hayotida oila juda muhim, hayotiga ma'no bag'ishlovchi omil hisoblanadi.

Oiladagi turli muammolar, uzluksiz nizolar, noxush holatlar, ilojisizlik xotin-qizlarni axloqiy-ruhiy jihatdan jarohat olishiga sabab bo'ladi va ularni turli salbiy harakatlarga, salbiy odatlarga yoki huquqbuzarlik yoki jinoyatchilik "ko'cha"lariga yetaklaydi.

Shuning uchun og'ir ijtimoiy holatdagi xotin-qizlar muammosiga kompleks yondoshish, ularning oilalarini o'rganish, oilalarning har bir a'zosi va ularning oilada, jamiyatda tutgan o'rni haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lish lozim.

Og'ir ijtimoiy holatga tushib qolgan xotin-qizlar muammolarini o'zlari mustaqil yecha olmaydi. Shuning uchun ham ularga malakali, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan yordam juda zarur.

Ularning ijtimoiy hayotda munosib tarzda o'z o'rnini topishi, shuningdek, ushbu jarayonda bevosita ishtirok etishi uchun muayyan kasb-hunarni egallashi, daromadli mehnat bilan band bo'lishi lozim.

Shunda ular o'zgarishlar jarayoniga tez va qulay moslashadi, o'zining va oilasining hayotini yaxshilaydi.

Har bir ayol (qiz) noyob va o'ziga xosdir. Shu jihat bilan bog'liq holda xotin-qizlar faolining asosiy vazifasi ularni zamonaviy bilim, kasb-hunar egallashlari uchun undash, aqliy imkoniyatlari, uning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish orqali munosabatda bo'lish zarur.

Bu borada ularni ijtimoiy hayotga to'siqlarsiz uyg'unlashib ketishiga ko'maklashish, buning uchun zarur sharoit yaratish, har bir ayol (qiz) uchun individual yondashuvni topish, hech bir muammoli ayol (qiz)ni e'tibordan chetda qoldirmaslik, ularni oilada va jamiyatda o'z o'rnini topishi, o'z muammolarini mustaqil ravishda o'qish, mehnat qilish orqali hal qila olishiga ishonтира olish muhim ahamiyatga ega.

Ularga bunday imkoniyatning yaratilishi uning psixologik rivojlanishi, ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday muhit ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlaydi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Mazkur jarayonda ijobiy natijaga erishish uchun barcha mas'ullar puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim. Hattoki oila a'zolari bilan suhbat o'tkazish, ular bilan individual ish olib borish, ular bilan amalga oshiriladigan harakatlar rejasini aniq belgilab olish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bunday oilalar bilan "mahalla yettiligi", mahalladagi jamoatchilik tuzilmalari a'zolari bilan hamkorlikda va maqsadli ish olib borish ijobiy natija beradi.

Muammoli xotin-qizlar va ularning oilalari bilan ishlash jarayonida quyidagilarga rioya qilishi zarur:

- *do'stona munosabatda bo'lish;*
- *uning (ularning) ruhiy holatini hisobga olish;*
- *vazminlik;*
- *samimiylilik;*
- *ehtiyotkorlik;*
- *muloqot madaniyatiga rioya qilish.*

Eng muhimi – "mahalla yettiligi", mahalladagi jamoatchilik tuzilmalari a'zolari zimmasidagi yuksak mas'uliyatni his etishi, ularning muammolarini o'z vaqtida aniqlash hamda hamkorlikda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muammolarini hal etishga ko'maklashish (band bo'lmagan oila a'zolarini daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash, tibbiy yordamga muhtoj oila a'zolarini davolanishiga ko'maklashish, oilaviy munosabatlardagi muammoli masalalarni hal qilish, profilaktik, tarbiyaviy ishlar olib borish va h.k.) choralari ko'rishdir.



1-rasm. Og'ir ijtimoiy xolatdagi xotin-qizlar bilan ishlashning asosiy usullari

Buning uchun og'ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarning oilalaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhitdan doimiy boxabar bo'lish, ko'rsatilayotgan yordamlar natijadorligini





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

sarhisob qilib borish, muammolarini aniqlash va hal qilish choralari ko‘rilayotgani haqida o‘zaro (“mahalla yettiligi”, ta’lim va tibbiyot muassasalari, jamoatchilik tuzilmasi a’zolari va h.k.) uzluksiz ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yishi zarur.

Oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitdan boxabar bo‘lish, oilalarda aniqlangan muammolarni hal etishga ko‘maklashish, muammoli vaziyatlar va salbiy holatlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish orqali salbiy holatlarning oldi olishga, oilalardagi tinchlik, xotirjamlikni asrab-avaylashga va ma’naviy-axloqiy muhit barqaror bo‘lishiga erishiladi.

Ishsiz yoki boqimandalik kayfiyatidagi xotin-qizlarning hayotda o‘z oldiga aniq va maqsadli yo‘nalish qo‘yishiga ko‘maklashish, ularda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishning ijobiy jihatlarini to‘g‘ri tushuntirib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali ularda ishlashga bo‘lgan xohish va intilish shakllanadi, faollik va mustaqillik sari qadam tashlashga undaydi. Buyuk faylasuf Suqrot aytganidek, “Kimda istak bo‘lsa – yo‘lini qidiradi, kimda istak bo‘lmasa – sabab qidiradi” — bu fikr xotin-qizlarni ruhlantirish va hayotga ijobiy qarashni shakllantirishda mustahkam asos bo‘la oladi.

Shu bilan birga, ko‘rsatilayotgan yordam va xizmatlarning samaradorligini baholash ham muhim vazifalardan biridir. Xotin-qizlar faoli har bir xizmat oluvchi ayolga mos individual ijtimoiy reja asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qiladi, ijrosi yuzasidan monitoring olib boradi va ularning natijadorligini xolisona baholaydi. Bu jarayon samarali intervensiya usullarini tanlashga, ayolning ijtimoiy hayotga integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Monitoringni olib borish quyidagicha amalga oshiriladi:

- ijtimoiy ko‘mak choralari (ijtimoiy xizmatlar)ni ko‘rsatishga mas’ul (vakolatli) tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar ma’lumotlarini yetkazib berish orqali;
- bevosita muammoli xotin-qizlar (ijtimoiy xizmat oluvchi) bilan suhbat orqali.

Xotin-qizlar faoli monitoringni olib borishda quyidagilarga e’tibor qaratadi:

- individual rejada belgilangan chora-tadbirlarning muddati va sifati;
- xizmat oluvchining hamda belgilangan mas’ullarning individual rejani amalga oshirishdagi ishtiroki;
- erishilgan natijalar samaradorligi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga yordam berish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, ya’ni Individual ijtimoiy rejada ko‘rsatilgan tegishli chora-tadbirlar ijrosi muammolarini hal etishga (ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga) mas’ul bo‘lgan vazirlik va idoralarning tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan “Ayollar daftari” bilan ishlash elektron axborot tizimiga kiritib boriladi va shundan so‘ng bajarilgan, deb hisoblanadi.

Xizmatlar bajarilishining monitoringi har oyda kamida bir marotaba, erishilgan natijalar samaradorligi har chorakda bir marotaba amalga oshiriladi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Mahalla raisi va hokim yordamchisi mahalla hududidagi xizmat oluvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha individual ijtimoiy rejadagi xizmatlarni bajarilishida joyiga chiqqan holda monitoringini yuritish va to'laqonli amalga oshirilishida ko'maklashadi.

Shunday qilib, og'ir ijtimoiy holatdagi xotin-qizlar kommunikativ ko'nikmalar, balki emotsional soha, motivatsion faoliyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat turlari bilan shug'ullanishi zarur. Buning uchun zarur sharoit yaratish, ularning daromadli mehnat qilish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarur.

Xotin-qizlar faoli lavozimi nihoyatda mas'uliyatli lavozim hisoblanadi, chunki kundalik hayotda mahalladagi xotin-qizlar, oilalar vakillari, turli yoshdagi xotin-qizlar bilan bevosita muloqotda bo'ladi, ular bilan manzilli va maqsadli ish olib boradi, qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli ishlarni amalga oshiradi.

Shu bois, xotin-qizlar faollari quyidagi qobiliyat va sifatlarga ega bo'lishi hamda ushbu sifatlarni o'zida rivojlantirishi muhim ahamiyatga ega.

Tashkilotchilik qobiliyati. Tashkilotchilik qobiliyati oilalar va xotin-qizlar oilalar bilan ish olib borish, ijtimoiy-ma'naviy masalalar bilan shug'ullanish, aholi o'rtasida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy va profilaktik tadbirlarni maqsadli va manzilli tashkil etishda, faoliyatga oid barcha topshiriqlarni sifati amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlar faoli mahallaning ichki imkoniyatlari (salohiyatli, tajribali va fidoyi insonlar, namunali oilalar vakillari)ni aniqlab, ulardan maqsadli foydalana olishi zarur. Salohiyatli va ijtimoiy faol xotin-qizlarni "Oqila ayollar harakati", xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya, "Ota-onalar universiteti", "Ayollar maslahat kengashi" jamoatchilik tuzilmasiga hamda oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirish hamda qizlar tarbiyasi, ma'naviyati va ma'rifatiga oid o'tkaziladigan kabi tadbirlarga jalb eta olish, ularning hayotiy tajribalari, salohiyatlaridan samarali foydalana olish xotin-qizlar faolining tashkilotchilik qobiliyatiga bevosita bog'liqdir.

Yangiliklarga intiluvchanlik. Xotin-qizlar faoli mamlakatimizning ichki va tashqi siyosati, ayniqsa, oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tushunishi va aholiga yetkaza olishi zarur. Shuningdek, oila va nikoh sohasida davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlar haqida tushunchaga ega bo'lishi va ularning mazmun-mohiyatini, ajrimning huquqiy va ijtimoiy oqibatlarini, har bir fuqaroga fuqarolik, otalik, onalik va farzandlik mas'uliyatini anglata olishi juda muhimdir.

Buning uchun u yangiliklardan doimiy tarzda xabardor bo'lishi, oila va nikoh sohasida davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlar haqida tushunchaga ega bo'lishi, ushbu bilimlarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkaza olishi, yangiliklardan doimiy tarzda xabardor bo'lishi, shuningdek, malaka oshirish kurslarida o'z bilimini oshirib borish, seminarlarda faol ishtirok etishi, hamkasblar bilan tez-tez tajriba almashib turish talab etiladi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Oila va ta'lim-tarbiya masalalari bilan shug'ullanadigan davlat va jamoat tashkilotlari o'z vakolatlari doirasida va sohaga doir vazifalaridan kelib chiqib hamkorlikda muammoli oilalar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashi va ularga har tomonlama ko'mak berishlari zarur.

Chunki oilalarning hayotiy muammo va masalalari turlicha, xotin-qizlar faolining asosiy vazifasi esa oilalardagi masalalarni bilish, o'z vaqtida aniqlash va ular bilan tizimli ishlarni tashkil etishdir. Demak, oilalardagi muammolarni hal qilishga mas'ul va vakolatli bo'lgan davlat idoralari va boshqa tashkilotlarning vazifalarini bilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, buning uchun ham yangiliklarga intiluvchan bo'lish muhimdir.

Xohish-istak va imkoniyat. Mazkur lavozim nihoyatda mas'uliyatli lavozim hisoblanadi. Shuning uchun xohish-istak (xalqqa nafi tegishini xohlashi) va imkoniyat (oilaviy sharoiti tinch, amalga oshirayotgan ishlari turmush o'rtog'i tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, farzandlari voyaga yetgan, faol ishlashi uchun sharoit yaratilgan) bo'lishi faoliyat samaradorligini ta'minlaydi, faoliyatga oid barcha vazifalar va topshiriqlarni belgilangan muddatda sifatli hamda sidqidildan amalga oshirish imkonini beradi.

Hayotiy tajriba. Mahalladagi xotin-qizlar faoli o'z faoliyati davomida turli xususiyatga ega bo'lgan oilalar va turli xarakterga ega bo'lgan xotin-qizlar bilan ish olib boradilar, shuningdek, har bir oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati va imkoniyatlari turlichadir.

Mahalladagi xotin-qizlar faoli amaliyotda turli vaziyatlarning va holatlarning guvohi bo'ladilar. Bunday vaziyatlarda muammo va masalaning tub mohiyatini tushunish, oilalarning turli xil xarakterga ega bo'lgan a'zolari bilan til topishish, masalaning eng maqbul yechimini topa bilish talab etiladi. Ayniqsa, muammoli, yosh oilalar bilan ishlash, erta nikohlar va oilaviy ajralishlarning oldini olish, notinchlik sabab va omillarini tahlil qila olish, oila a'zolarini yarashtirish, ular bilan yakka tartibdagi suhbatlar o'tkazishda ham bilim va tajriba qo'l keladi.

Ushbu lavozim egalari mahallaning o'ziga xos ma'naviy qadriyatlari, milliy an'analari va urf-odatlarini bilishi va hurmat qilishi, har bir xonadonning holatini yaxshi bilishi, ayniqsa og'ir sharoitdagi xotin-qizlar oilalaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhit, mahalladagi vaziyatdan, mavjud muammolar va shart-sharoitlardan xabardor bo'lishi salbiy holatlarni barvaqt aniqlash, oldini olish va bartaraf etishda yordam beradi.

Aholi o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lish. Muammolari masalalarni hal etishda xolis bo'lish, tinimsiz mehnat, fidoyilik, fuqarolar bilan munosabatlarda odob-axloq qoidalarga qat'iy rioya etish natijasida fuqarolarning hurmat-e'tiboriga erishish mumkin. O'ziga ma'lum bo'lgan oilalarga oid axborotlarning qat'iy sir saqlanishini ta'minlash, xotin-qizlarning shaxsiy hayoti bilan bog'liq ma'lumotlarni oshkor etmaslik orqali oilalarning ishonchi qozoniladi.

Bu borada mahalladagi xotin-qizlar faolining muomala madaniyati, mehnatga munosabati, qat'iy tartib-intizomga rioya etishi muhimdir.





1-jadval.

Xotin-qizlar faollari uchun zarur qobiliyat va shaxsiy sifatlar

№	Sifatlar	Qisqacha tavsif
1	Tashkilotchilik qobiliyati	Faoliyatni samarali tashkil etish, jamoani boshqara olish va vazifalarni rejali taqsimlash qobiliyati.
2	Yangiliklarga intiluvchanlik	Yangi g'oyalar, texnologiyalar va ish uslublarini o'rganishga va joriy etishga bo'lgan qiziqish.
3	Xohish-istak va imkoniyat	Belgilangan vazifani bajarishga bo'lgan ichki motivatsiya va zarur resurslarga ega bo'lish.
4	Hayotiy tajriba	Turmushda va ish faoliyatida to'plangan bilim va ko'nikmalar asosida oqilona qaror chiqara olish.
5	Aholi o'rtasida obro'-e'tibor	Jamoa va aholi orasida hurmat qozongan, ishonchli shaxs sifatida tan olingan bo'lish.
6	Fidoyilik	Faoliyatga sidqidildan, yurakdan yondashish, o'z manfaatidan ustun qo'ya olish qobiliyati.
7	Sadoqatlilik	Tashkilotga, jamoaga va yurtga sadoqat bilan xizmat qilish.

**Jadval muallif tomonidan tuzilgan*

Fidoyilik. Og'ir sharoitdagi xotin-qizlar muammolarini hal etishda, oilalarni mustahkamlashda, mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarning oldini olishda fidoyilik muhim ahamiyatga ega. Bunda xotin-qizlarning muamosini o'z muammosi, deb bilish, muammo hal bo'lmagunga qadar tinib-tinchimaslik, muammo hal bo'lishi uchun harakat qilish, muammoli masalani yechimiga mas'ul bo'lgan tashkilotlar bilan aloqada bo'lish muhimdir.

Sadoqatlilik. Bu fazilat, ya'ni ma'rifat va ma'naviyat mahsuli. Bugun bizdan mehnatda, ishda o'z burchiga sadoqat talab etilmoqda. Ushbu lavozim egalariga ishonch bildirilmoqda, ishonch esa sadoqatni talab qiladi, bildirilgan ishonchni oqlab, natijaga erishishda qat'iylik bilan harakat qilish talab etiladi. Sadoqat har bir insonning yuzini yorug' qiladi, uning o'ziga ishonchi va aholi o'rtasida hurmatini oshiradi.

Xotin-qizlar faollari jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, oilalar va mahallalarda ma'naviy muhitni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ulardan talab etiladigan qobiliyat va sifatlar – bu faqat shaxsiy ustunlik emas, balki jamoat ishida samarali ishtirok etishning ham asosidir.

Aynan tashkilotchilik qobiliyati, fidoyilik, va sadoqatlilik kabi sifatlar xotin-qizlar faollarini ishonchli yetakchi sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, yaniliklarga intiluvchanlik va hayotiy tajriba esa ularning har bir vaziyatga mos ravishda yondashishini, dolzarb muammolarga zamonaviy yechimlar topishini ta'minlaydi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Hozirgi zamonda xotin-qizlar nafaqat ijtimoiy sohada, balki iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy yo'nalishlarda ham faol ishtirok etayotgani, ularda yuqorida keltirilgan sifatlarni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur qobiliyat va sifatlarni targ'ib qilish, ularni tizimli tarzda rivojlantirish orqali xotin-qizlar faollarining jamiyatdagi ta'siri yanada kuchayadi, fuqarolar o'rtasida ishonch va hurmatga sazovor shaxslar yetishib chiqadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mahallalardagi xotin-qizlar faollari quyidagi tavsiyalarga amal qilishi ularning faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil bo'ladi:

birinchidan, mahalladagi xotin-qizlar faoli o'z zimmasidagi ijtimoiy mas'uliyat qanchalik kattaligini tushunishi har bir masalaga mas'uliyat bilan yondoshish, muammolarning asl sabablarini o'rganish, oila a'zolari hamda xotin-qizlarga to'g'ri maslahatlar berish, ular bilan manzilli ish olib borishda muhim omil bo'ladi;

ikkinchidan, xotin-qizlar faoli mahalladagi oilalarning o'ziga xos xususiyatlari, ulardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit va oilalarning imkoniyatlarini yaqindan bilishi oilalar bilan maqsadli ishlashda qo'l keladi;

uchinchidan, oilalardagi masalalarni tahlil qilish, nizoli holatlarning oldini olish ko'nikmasiga ega bo'lishi oilalarda shaxslararo munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

to'rtinchidan, oilalar va xotin-qizlarning muammolarini tizimli o'rganish, ularga ushbu muammolarni hal etishga ko'maklashishda mas'ul idora va tashkilotlar imkoniyatlaridan to'g'ri foydalana bilishi muammolarga o'z vaqtida yechim topish, salbiy holatlarning oldini olish va bartaraf etishga xizmat qiladi;

beshinchidan, o'z ustida tinimsiz ishlashi, oilalar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga hamda o'z faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini puxta o'zlashtirib borish oilalar va xotin-qizlar bilan ishlarni manzilli tashkil etish, ularning islohotlardan bahramand bo'lishida yaxshi natija beradi;

oltinchidan, xotin-qizlar faoli o'zining bilimi, fikrlash qobiliyati, dunyoqarashi xatti-harakati va xarakteri jihatidan hammaga o'rnak bo'lishi, muammoli vaziyatlarda o'zini tutish, eng maqbul yechimni topa bilishi uning aholi orasida obro'sini yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ular o'zining bilimi, fikrlash qobiliyati, dunyoqarashi xatti-harakati va xarakteri jihatidan hammaga o'rnak bo'lishi, muammoli vaziyatlarda o'zini tutish, eng maqbul yechimni topa bilishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son Farmoni.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 31 martdagi 145-son qarori / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.04.2022 y., 09/22/145/0253-son, 10.09.2022 y.

4. Egamberdiyeva, N.M., Tuychiyeva. G.G., Ismaylova, R.N. Tauziq va zo‘rovonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatish: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 144 b.

5. Musurmanova O., Norqulov., Abdurahimova F. Mahallada oila farovonligi: milliy qadriyatlar va odob durdonalari: uslubiy qo‘llanma / - Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. - 140 b.

6. Musurmonova O., Kuronov M., Abdujabborova M. Mahalla – hayot ko‘zgusi. (savollarga javoblar) – T.: Yoshlar mediaprint, 2021. – 100 b.

7. Miralimov Sh. Mahalla mehri. – T.: Yoshlar mediaprint, 2021. – 100 b.

